

TALABALARNING MANTIQUIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING ROLI

Matematika va ta'limda axborot texnologiyasi kafedrası o'qituvchisi

Ilmiy rahbar: **Zaxiriddinova Shahlo**

Pedagogika va Psixologiya kafedrası o'qituvchisi.

Ilmiy rahbar: **DJabborov.M.B**

Murodulloyeva Jasmina Najim qizi

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti

“Matematika va informatika” yo‘nalishi

3- bosqich talabasi

jmurodulloyeva@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri talabalarni shunchaki ma'lumotlar to'plami bilan qurollantirish emas, balki ularda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Mustaqil ta'lim aynan mana shu jarayonda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. U talabalarga o'quv materiallarini chuqur o'zlashtirish, turli manbalardan foydalanish va olingan bilimlarni tizimlashtirish imkonini beradi. Natijada, talaba passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylanadi. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalar muammolarni aniqlash, ularga yechim izlash va o'z fikrlarini mantiqiy asoslashni o'rganadilar. O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim sohasida olib borayotgan siyosati, yuksak umumiy va kasbiy madaniyatga ega bo'lgan, ijodiy va ijtimoiy faol, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil holda harakat qila oladigan, kelajakka qaratilgan vazifalarni qo'ya olish va ularni yechishga qodir bo'lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirish talabini qo'ymoqdaki, bu oliy ta'lim tizimida mustaqil o'qish-izlanish faoliyatiga alohida e'tiborni talab etadi. Ushbu maqolada mustaqil ta'limning talabalar mantiqiy tafakkurini shakllantirishdagi o'rnini, uning samaradorligini oshirish mexanizmlari va bu boradagi pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi.

Tayanch soʻzlar: Mantiqiy tafakkur, tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyat, mustaqil oʻrganish, analiz va sintez, induktiv va deduktiv usullar, mantiqiy amallar, aqliy hujum, kognitiv qobiliyatlar, fikrlash kompetensiyalari, oʻquv faoliyati, mustaqil ish, metodik yondashuv, strategik rejalashtirish.

Аннотация: Одной из основных целей современной системы образования является не просто вооружить учащихся наборами данных, но и развить у них навыки самостоятельного мышления, анализа и умозаключений. Именно в этом процессе решающее значение приобретает самостоятельное обучение. Она позволяет учащимся глубоко усваивать учебный материал, использовать различные ресурсы и систематизировать полученные знания. В результате студент превращается из пассивного слушателя в активного исследователя. В процессе самостоятельного обучения студенты учатся выявлять проблемы, искать их решения и логически обосновывать свои мысли. Проводимая в сфере высшего образования политика Республики Узбекистан предъявляет требование формирования нового поколения кадров, обладающих высокой общей и профессиональной культурой, творческой и общественной активностью, способных самостоятельно действовать в общественно-политической жизни, ставить и решать задачи, нацеленные на будущее, что требует особого внимания к самостоятельной учебно-исследовательской деятельности в системе высшего образования. требует. В статье анализируется роль самостоятельной работы в формировании логического мышления студентов, механизмы повышения ее эффективности и педагогические подходы к этому.

Ключевы слова: Логическое мышление, критическое мышление, проблемная ситуация, самостоятельное обучение, анализ и синтез, индуктивные и дедуктивные методы, логические действия, мозговой штурм, познавательные способности, мыслительные компетенции, учебная деятельность, самостоятельная работа, методический подход, стратегическое планирование.

Annotation: One of the main goals of the modern educational system is not to simply arm students with a set of data, but to develop in them the skills of independent thinking,

analysis and drawing conclusions. Independent education is of decisive importance in this process. It allows students to in-depth mastering of educational materials, use various resources and systematize the knowledge gained. As a result, the student becomes an active researcher from a passive listener. Through independent learning, students learn to identify problems, find solutions, and logically justify their opinions. The policy of the Republic of Uzbekistan in the field of Higher Education requires the formation of a new generation of personnel with a high general and professional culture, creative and socially active, able to act independently in socio-political life, able to set future tasks and solve them, which requires special attention to independent educational and research activities in the higher education system. This article analyzes the role of independent learning in the formation of students' logical thinking, mechanisms for increasing its effectiveness, and pedagogical approaches in this regard.

Keywords: Logical thinking, critical thinking, problem situation, independent learning, analysis and synthesis, inductive and deductive methods, logical actions, mental attack, cognitive abilities, thinking competencies, educational activities, independent work, methodological approach, strategic planning.

Bugungi kunda ilmiy tadqiqotlarning samaradorligini oshirish va ta'lim jarayonining sifatini yaxshilash maqsadida talabalar mustaqil ishlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Mustaqil ishning asosiy vazifasi – fanlarni tizimli o'rganish, olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, yangi bilimlarni izlashda mustaqillik va aqliy mehnat madaniyatini shakllantirishdan iboratdir. Shu bois, talabalarning mustaqil faoliyati uchun aniq talablar va standartlar ishlab chiqilgan bo'lib, bu jarayon o'quv rejasida nazarda tutilgan mavzular asosida tizimli va nazoratli tarzda tashkil etiladi. Maqola doirasida mustaqil ishning mazmuni, turlari hamda ilmiy manbalar bilan ishlash tartiblari yoritiladi, bu orqali o'quv jarayonida talabalar mustaqilligi va o'zlashtirishning yangi usullari taqdim etiladi. Shuningdek, ilmiy izlanishlarga tayyorlanish, konspekt yozish va rafaat tayyorlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirish, kurs va bitiruv malakaviy ishlari orqali nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish jarayoni ko'rib chiqiladi. Ushbu tadqiqotlar ta'lim jarayonining

zamonaviy talablarga muvofiq shakllanishi va talabalarning o'z mustaqil ishlarini samarali olib borishlari uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Talabalar mustaqil ishining maqsadi – semestr davomida fanlarning tizimli o'rganilishini tashkil etish, olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash va chuqurlashtirish, navbatdagi darslarga tayyorlash, yangi bilim izlashda – egallashda mustaqillikni hamda aqliy mehnat madaniyatini shakllantirishdan iborat. Uning uchun ajratilgan vaqt ishchi o'quv rejasi bilan belgilanadi va talaba uchun muayyan fanni o'rganishga ajratilgan o'quv soatlari umumiy hajmining 30-60 foizini tashkil etishi mumkin.

Har bir o'rganilayotgan fan bir qator mavzuli bo'limlarga taqsimlanadi va ularning har biri uchun mashg'ulotlarning barcha muhim turlari, mustaqil nazariy va amaliy ish uchun vazifalar, o'quv va ilmiy adabiyot, statistik ma'lumotlar manbalari va boshqalar belgilanadi. Talaba belgilangan tartibda har bir bo'lim vazifalarini bajarganligi to'g'risida hisobot beradi. Talaba tomonidan bajarilgan barcha ishlar kafedrada ishlab chiqilgan va tasdiqlangan mezon asosida baholanadi. Har bir mustaqil ish bo'yicha etarli ball to'play olmagan talaba tegishli fanni o'zlashtirmagan hisoblanadi.

Mustaqil ishlar mohiyatiga ko'ra ikkitomonlama xarakterga ega:

Birinchidan, bu o'quv dasturda rejalashtirilgan va talaba tomonidan materialni mustaqil o'zlashtirishida, auditoriyadan tashqari vaqtda o'quv mashg'ulotlarining turli shakllarini tashkillashtirishda talaba faoliyatining usuli;

Ikkinchidan, bu institutda o'quv jarayonida talaba tomonidan bajariladigan barcha o'quv mashg'ulotlarining to'plami: masalan, biron-bir ilmiy yoki o'quv adabiyotni o'qib-o'rganish, konspekt yozish, ma'lum bir muammo yoki masala yuzasidan ijodiy ma'lumot, ma'ruza tayyorlash; referat, kurs ishi yoki bitiruv malakaviy ishini tayyorlash va h.k.

Talabalar mustaqil ishlari o'z xususiyatlariga ko'ra quyidagicha bo'lishi mumkin.

Reproduktiv mustaqil ish - mutoala, o'quv adabiyotini konspektlash, ma'ruzani tinglash, matnni aytib berish, eslash, o'quv materialini takrorlash (qaytarish) va boshqalar

Bilib – izlaydigan mustaqil ish amaliy va seminar mashg'ulotlarda xabar va ma'ruzalar bilan chiqish, o'quv dasturi bo'yicha adabiyotlar tanlash, kurs va nazorat ishlari yozish va hokazo.

Ijodiy mustaqil ish – referatlar va ilmiy maqolalar yozish, ilmiy – tadqiqot ishlarida qatnashish, bitiruv malakaviy ishga tayyorgarlik ko'rish, maxsus ijodiy topshiriqlarni bajarish va hokazo.

Talabalarning mustaqil ishlari bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish uchun kafedrada quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

Har bir kurs (fan) ishchi dasturini mavzuli bo'limlarga taqsimlash;

Bo'limlar doirasida mustaqil ishlar vazifalarini, nazorat tadbirlarini ishlab chiqish va har bir vazifa uchun baholash ballarini belgilash;

Semestrning birinchi haftaligida talabalar va fakultet dekanini ushbu semestrda o'tkaziladigan barcha dars va mashg'ulotlar bo'yicha reyting tizimi, mavzular tarkibi hamda har bir bo'lim bo'yicha o'rnatilgan hisobot shakli va muddati bo'yicha xabardor qilish;

Tabalarni zarur uslubiy materiallar bilan ta'minlash;

Talabalarni mustaqil o'rganishga berilgan mavzular bo'yicha axborot resurs-manbalari ro'yxati bilan tanishtirish va imkon qadar ta'minlash;

Maslahatlar (konsultatsiyalar) berishni tashkillashtirish;

Talabalarni reyting nazorat natijalaridan xabardor qilib borish;

Fakultet dekanati:Kafedra taklifi bo'yicha talabalarining mustaqil ishlarni bajarishi bo'yicha semestr rejasini tasdiqlashi;

Reyting nazorati va baholash mezonlarini talabalarga ma'lum qilishi;

Kafedrani zaruriy hujjatlar (yakuniy va joriy vedomstlar) bilan ta'minlashi;

Kafedralar tomonidan mustaqil ish nizom-qoidalarining bajarilishi ustidan nazorat o`rnatishi kerak.

**Kafedra professor-o`qituvchisi:** O`quv jarayoni samaradorligini oshirish uchun barcha turdagi auditoriya mashg`ulotlari, talabalarning aniq hajmli vazifalarga ega mustaqil ishlari, ularning bajarilishi mehnat siyosati, nazorat shakllarini o`zida mujassam etgan o`quv mashg`ulotlarini tashkil etishning texnologik xaritalarini ishlab chiqishi kerak. O`quv kursining har bir mavzusi bo`yicha ishlab chiqilishi kerak bo`lgan texnologik xaritalar ma`ruzaning asosiy savollari, amaliy va seminar mashg`ulotlari, zarur adabiyotlar ro`yxatini o`z ichiga oladi. Nashr etilgan hujjatlar, ko`rgazmali qurollar majmuasi (chizma, grafik, slayd va boshqalar) o`quv guruhlariga oldindan tarqatiladi va o`quv jarayonining muhim tashkiliy qismi hisoblanadi.

Talabalarning mustaqil ishlashga ko`nikmalar hosil qilish darajasiga qarab I semestrda boshlab semestrma-semestr mustaqil ish hajmini oshirib borish, oddiydan murakkabroq vazifalarga (amaliy mashg`ulotlarda faol qatnashish, referat, kurs ishi, bitiruv malakaviy ish) o`tib borish, foydalanadigan mustaqil ish shakllarini kengaytirib borish maqsadga muvofiqdir.

O`qituvchi hamma vaqt talaba tomonidan bajarilayotgan mustaqil ishga nisbatan ijodiy yondashuvni oshirib borishi hamda tanlagan mustaqil ish shakliga ilmiy-tadqiqot, amaliy tajribaning umumiy elementlarini faol qo`shib borishi lozim. Bu o`rinda asosiy masala – har bir talabani mustaqil o`qib-o`rganishini kuchaytirishdan iborat. O`qituvchi doimo mustaqil ishni boshqarib borishi, uni tashkil etishda o`zbo`larchilikka yo`l qo`ymasligi, o`rnatilgan nazorat tizimini amalga oshirishi va o`qishning barcha bosqichlarida talabalarga xolisona yordam berishi kerak.

Ta'lim jarayonida talaba o`quv adabiyotini o`qib o`rganar ekan, nazariy materialni o`zlashtirish, bilim berish faoliyatini rivojlantirish, amaliy ko`nikma va tajribalarni shakllantirish yo`li bilan o`zida bilimlar tizimini shakllantiradi. Bunda o`quv adabiyoti asosiy bilim manbalaridan biri vazifasini bajaradi.


O`quv darsligi bilan mustaqil ishlash jarayonida talaba turli xil fikrlash faoliyatini amalga oshirib, eng ahamiyatli ma'lumotlarni izlab topadi, solishtiradi, tasniflaydi va hakoza. Shu tariqa unda o`ta muhim xususiyat □ bilim olish faoliyatidagi mustaqillik shakllanadi.

Talabaning o`quv adabiyoti bilan ishlashi materialni o`rganishning ketma-ketlikdagi harakatlaridan iborat emas. Materialni o`rganish jarayonida talaba o`quv adabiyotining turli xil qismlari va bo`limlariga bir necha bor murojaat qilishga to`g`ri keladi:


- bo`lim yoki paragraf oxirida keltirilgan, o`qituvchi bergan yoki uning o`zida ilgari o`qilganlarni fikrlash natijasida yuzaga kelgan savollarga javob topish;
- qonun va tamoyillarni ifodalash, formula va tushunchalarni aniqlash;
- matn va uning ayrim qismlarini, uning mohiyati va asosiy mazmunini yaxshiroq tushunish uchun qayta o`qib chiqish;
- qonun va hodisalarning amaliy qo`llanishini ajratib ko`rsatish, aniqlangan dalil va misollarni nazariy material bilan solishtirish;
- tarixga oid ma'lumotlarni ajratib ko`rsatish;
- o`quv adabiyotning turli bo`limlaridagi rasmlar, jadval va grafiklarni solishtirish;
- turli xil ilmiy ishlarni bajarish (tezis, referat, maqola yozish, bitiruv malakaviy ishni bajarish va hakoza) jaryonida matnni qayta o`qish va kerakli qismlarni ajratib olish;
- ma'ruza va amaliy ishlarga tayyorgarlik jarayonida o`quv materialini takrorlash;
- mavzular va nomlar ko`rsatkichi yordamida ma'lumotlarni izlab topish;
- biror-bir qonuniyatni yoki tendentsiyani aniqlash maqsadida grafik va jadvallarni tahlil qilish.

Talaba mustaqil bilim olish jarayonida biron bir matndan uy vazifa mavzui, o`zining ilmiy qiziqishlari doirasida tadqiqot mavzulari bo`yicha zarur axborotlarni olish maqsadida o`quv-ilmiy adabiyotlar, davriy nashrlar, ilmiy asarlar va maqolalar to`plamlari, kitoblarni mutolaa qilish va ular bilan ishlash yo`llarini bilish kerak.


Axborotlarni markirovkalash usullari



Axborotlarni markirovkalashning alohida belgili tizimiga misollar



?	-shubhalanish, Savollar berish;
!!!	-muhim, e'tibor berish;
□	
NB!	-yaxshi,



✓	-bilganimni tasdiqlaydi,
+	-yangi axborot
(-)	-bilganimni aksi,
?	-meni o'ylantirib

ADABIYOTLAR TAHLILI:Mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonining nazariy asoslarini chuqur o'rganish uchun avvalo tegishli adabiyotlar tahlili olib borildi. Ushbu tahlil shuni ko'rsatdiki, mustaqil ta'lim nafaqat talabalarning bilim olish jarayonini

mustahkamlash, balki ularning shaxsiy, kasbiy va madaniy rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning uchta jihati bor. Birinchisi mustaqil ta'lim jarayonida shaxsiy rivojlanishning o'rnini ajralmas ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlandi. Talabalar o'z-o'zini rivojlantirish jarayoni davomida mustaqil fikrlash, o'z qobiliyatlarini oshirish va kreativ tafakkurga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Ta'lim sharoitida talaba o'zining shaxsiy qiziqishlari va o'rganish uslubiga mos ravishda mavzularni chuqurroq o'rganish imkoniyatini qo'lga kiritadi. Bu esa o'z navbatida, shaxsning intellektual salohiyatini oshirish, ijodiy qarashlarni rivojlantirish va muammolarga yangicha yondashish usullarini shakllantirishga yordam beradi. Nazariy adabiyotlarda mustaqil ta'limning shaxsiy rivojlanishga ta'siri keng yoritilgan bo'lib, bunday yondashuv talabalarga o'z-o'zini anglash va o'zini taraqqiyotga yo'naltirishda katta yordam beradi.

Ikkinchi jihat sifatida, nazariy tahlil kasbiy va madaniy kompetentsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Oliy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri - nafaqat ilmiy bilimlarni berish, balki kadrlarning kasbiy mahoratini oshirishdir. Shu bilan birga, bu tizim talabalarning axloqiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan yetuk bo'lishini ta'minlashga ham katta e'tibor qaratadi. Adabiyotlarda mustaqil ta'limning ushbu jihati ta'kidlanib, u talabaga o'zining kasbiy sohasida mustaqil qarorlar qabul qilish, murakkab vaziyatlarda tez va to'g'ri fikrlash qobiliyatini shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, bu jarayon orqali talabalarda madaniy qadriyatlar, etika va ijtimoiy mas'uliyatni o'zlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonida talabalar nafaqat o'z bilimlarini oshirish, balki jamiyatga foydali, mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarni ham rivojlantiradilar.

Uchinchi jihat sifatida, kredit modul tizimi mustaqil ta'limni tashkil etishda alohida o'rin egallaydi. Bu tizimning afzalligi shundaki, u talabalarga o'z qiziqishlariga mos mavzuni chuqurroq o'rganish imkoniyatini yaratadi. Kredit-modul tizimi yordamida ta'lim jarayoni modul va mustaqil o'rganish shakllariga bo'linib, talabaga o'zining o'rganish jarayonini nazorat qilish va shaxsiy rivojlanish strategiyasini belgilash imkonini beradi. Bu yondashuv talabalarga o'zlarining o'qish rejalari va maqsadlariga mos keladigan mustaqil

o'rganish usullarini tanlash imkonini berib, shaxsiy o'sishga ko'maklashadi. Kredit-modul tizimi orqali olingan natijalar ko'rsatadiki, bunday tizim talabalarni yanada faol va tashabbuskor bo'lishga undaydi, bu esa ularning kelajakda mustaqil va innovatsion fikrlash qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ilgari olib borilgan tadqiqotlar asosida, masalan, V.I. Andriyanova, P.T. Magzumov, U.N. Nishonaliyev, N. Sayidahmedov va boshqa olimlarning ishlarida mustaqil ta'limni tashkil etishning turli usullari va uning pedagogik samaradorligi batafsil o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlar asosida mustaqil ta'lim jarayoni faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy tajribalar va konkret misollar orqali ham ko'rsatildi. Shu bilan birga, xalqaro miqyosda ham mustaqil ta'lim jarayonining metodologik asoslari keng tadqiq etilgan. Masalan, Kenig va McKeachie (1959), Mur (1973) hamda Henderson (1984) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mustaqil ta'limning psixologik va metodologik jihatlarini yoritib, uning samaradorligini isbotlagan. Bu tadqiqotlar ta'lim jarayonida mustaqil fikrlash, o'z-o'zini boshqarish va kreativ yondashuvlarni shakllantirishda qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonida uch asosiy jihat - shaxsiy rivojlanish, kasbiy va madaniy kompetensiyalar, hamda kredit-modul tizimi - bir-birini to'ldirib, talabalarni yanada yetuk va mas'uliyatli shaxsga aylantirishda hal qiluvchi rol o'ynashini aniqladi. Ushbu ilmiy yondashuvlar va ilgari olib borilgan tadqiqotlar asosida, mustaqil ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun nafaqat nazariy, balki amaliy jihatlarni ham hisobga olish zarurligi aniqlandi. Shu tariqa, kelgusidagi tadqiqotlar va ta'lim tizimini takomillashtirish borasidagi takliflar, yuqorida tilga olingan asosiy jihatlarga asoslanib ishlab chiqilishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot namunasi sifatida O'zbekistonning turli oliy ta'lim muassasalaridagi talabalar va o'qituvchilar tanlandi. Tadqiqotda qatnashuvchilar soni va ularning ta'lim jarayonidagi roli muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular orqali mustaqil ta'limning turli jihatlarini to'liq aks ettirildi. Tadqiqot ishtirokchilari orasida talabalarning mustaqil o'qishdagi

yondashuvlari, o'z-o'zini tashkil etish qobiliyatlari va ularni qo'llab-quvvatlashdagi o'qituvchilarning tajribalari ham tahlil qilindi.

Ma'lumotlar yig'ishda quyidagi usullar qo'llanildi:

So'rovnomalar anketasi. Talabalar mustaqil ta'lim faoliyatiga bo'lgan munosabatlarini, undagi qiyinchiliklarni va imkoniyatlarni aniqlash maqsadida maxsus tayyorlangan so'rovnoma anketalari tarqatildi. Ushbu anketalar orqali talabalar o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniga ega bo'ldi va so'rovnoma natijalari tahlil qilinib, statistik ko'rsatkichlarga asoslangan xulosalar chiqarildi.

Intervyu. O'qituvchilar bilan chuqur suhbatlar o'tkazildi. Intervyu usuli yordamida o'qituvchilar mustaqil ta'limni tashkil etishdagi tajribalari, qo'llanilayotgan metodlar, yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish strategiyalari haqida batafsil ma'lumot berdilar. Bu usul tadqiqot natijalarini yanada boyitishga va kontekstual tahlilni kuchaytirishga xizmat qildi.

Kuzatuvlar. Sinf va laboratoriya ishlarida talabalarning mustaqil faoliyatini bevosita kuzatish orqali, ularning ta'lim jarayonida qanday yondashuvlarni qo'llayotganligi va bu yondashuvlarning samaradorligi aniqlanib olindi. Bu kuzatuvlar orqali olingan ma'lumotlar tadqiqotning empirik asosini mustahkamladi va aniq misollar orqali mustaqil ta'lim jarayonining amaliy natijalarini ko'rsatdi.

Olingan barcha ma'lumotlar sifatli va miqdoriy tahlil usullari yordamida qayta ishlangan. Bir tomondan, sifatli tahlil kontekstual yondashuv asosida olib borildi. Bu yondashuv yordamida qatnashchilarning so'zlari, intervyu va kuzatuvlar natijalari tafsilotlari tahlil qilinib, mustaqil ta'lim jarayonining qanday shakllarda amalga oshirilayotgani, ularning samarasini oshirishdagi omillar va yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar aniqlab chiqildi.

Boshqa tomondan, miqdoriy tahlil usuli yordamida statistik ko'rsatkichlar (masalan, foizlar, o'rtacha qiymatlar) hisobga olindi. Bu usul orqali so'rovnomalar natijalari raqamli ko'rinishda ifoda etilib, turli ko'rsatkichlar o'rtasidagi munosabatlar va tendensiyalar aniqlanib chiqildi. Shu tarzda, ma'lumotlar tahlili orqali mustaqil ta'lim jarayonining

umumiy samaradorligi va uning tashkil etilishidagi asosiy omillar ilmiy jihatdan ishonchli natijalarga erishildi.

Tadqiqot natijalari. O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasida yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash, uning kasbiy sifati va samaradorligini oshirish borasida XXI asrning ikkinchi o'n yilligida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Jumladan, tayyorlanayotgan bo'lajak mutaxassisning ongishuurida:

- istalgan masala, mohiyat yuzasidan mustaqil, erkin mulohaza yurita olish;
- ijodiy tafakkur sohibi bo'lish, tadbirkor;

faollikni odatiga aylantirish, ezgu xislatlarni tarkib toptirish zarur.

Oliy ta'lim tizimiga oid muhim hujjatlarda ta'kidlanganidek, "...o'qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda distansion ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish", kundalik yumushlarimiz sirasiga kirishi kerak. Zero, mustaqil ta'lim natijalari bo'lajak mutaxassisda zaruriy bilim, malaka, ko'nikmalar bilan bir qatorda quyidagi jihatlarni ham tarbiyalaydi:

1) g'oyaviy (dunyoqarashi) yo'nalish:

g'oyaviy sobitlik;

axloqiy va ma'naviy poklik;

ijtimoiy majburiyat va fuqarolik mas'uliyati, ijtimoiy-siyosiy faollik;

2) kasbiy yo'nalish:

kasbiy madaniyat-etika;

ijodiy tafakkur;

noan'anaviy, yangilikni qabul qilishga tayyorgarlik;

fikrda qat'iylik

3) bilish (faoliyati) yo'nalishi:

ilmiy bilishga tashnalik va qiziqish;

shaxsiy faollik;

yangilikni oldindan sezish

"...mustaqil ta'lim olish faoliyatiga hamisha ehtiyojmandlik, mustaqil tafakkur. Demak, ...uzluksiz mustaqil ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy yetuk shaxsni shakllantirish, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga zaruriy shart-sharoit yaratadi."Maqolada keltirilgan nazariy va amaliy xulosalar asosida aytish mumkinki, mustaqil ta'lim – bu zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, u talabalarning individual qobiliyatlarini oshirish, ularning mustaqil fikrlash va o'z-o'zini rivojlantirish salohiyatini maksimal darajada namoyon etish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o'z navbatida, raqobatbardosh, yuqori malakali va ijtimoiy mas'uliyatga ega kadrlarni tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bois, ta'lim tizimida mustaqil ta'limni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar, innovatsion yondashuvlar va pedagogik metodlarning yanada takomillashtirilishi zarurligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

FOYDALANUVCHI ADABIYOTLAR

- Azizov U. Kredit modul tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari.
- <http://uzbekistonovozi.uz/uz/articles/index.php.ECTIONID=161&ELEMENT>
- Кениг, Кэтрин; WJ McKeachie (июнь 1959 г.). «Личность и самостоятельное обучение». Журнал педагогической психологии. 50 (3). DOI: 10.1037/h0041286.
- Мур, Майкл Грэм (1973). «К теории самостоятельного обучения и преподавания». Журнал высшего образования: 661-679.
- Хендерсон, Юан. С. (1984). «Введение: теоретические взгляды на образование взрослых». В Хендерсоне, Юан. 5.; Натенсон, Майкл Б. (ред.). Самостоятельное обучение в высшем образовании. Энглвуд Клиффс, Нью-Джерси: Публикации по образовательным технологиям. С. 3-56. ISBN 978-0-87778-188-2. Проверено 25 мая 2013 года.
- Филатова Л.М. Тенденции изменения спроса на высшее образование: предпосылки, возможности, риски // Вопросы образования. 2014. № 5 (84). С. 32-48.

- Khasanova, G. K. (2022). THE NEED FOR TECHNOLOGY IN THE DESIGN OF THE PEDAGOGICAL PROCESS. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (Special Issue 20), 95-100.
- Усербай, Б. (9102). Мустакил таълим - талаба билимининг асоси. Туркий халцлар фольклори, адабиётшунос уамда тилшуносликнинг ауамиятли масалалари: Халцаро конференция, 1(1), 105-108.
- Кучкоров, (2020). Жавдат ва унинг Самарканд адабий хдётида тутган урни. ИНТЕРНАУКА, 13(142), 89-90.
- Кучкоров, Х,. Х,. (2020). Личность в системе человеческих общение и педагогических взаимоотношений. Innovative achievements in science, 439-441.
- Baykabilov, U. A. (2020). Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish bosqichlari
- Хдсанзода, К. Х. (2020). Жавдат ижодида панд-ахлоқ мавзуси ва унинг ёш авлод тарбиясидаги урни. Science and Education, 1(2)